



**ONA TILI DARSLARIDA INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA TIL
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

Shodiyeva Dilfuza Urinbayevna

Angren Universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ona tili darslarida individual yondashuv asosida til kompetensiyalarini shakllantirish usullari to'g'risida fikr yuritilgan.*

Kalit sozlar: *Kommunikativ savodxonlik, tabaqalashtirilgan ta'lim metodlari, individual yondashuv, lingvodidaktik asoslar, nutqiy rivojlanish, mustaqil fikrlash.*

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilishi, umumiy o'rta ta'lim yo'nalishi oldiga ulkan vazifalarni qo'yimoqda. O'sayotgan yosh avlodning mustaqil va ijodiy fikr egasi, vatan taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan, ma'naviy barkamol shaxs bo'lib yetishishini ta'minlash-bugungi kunda ta'lim tizimining bosh maqsadi hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili ta'limining asosiy maqsadi-bu kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, qiroat va suxandonlik san'atidan boxabar, og'zaki nutq va matn yaratish ko'nikmalarini mukammal egallagan ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirishdan iborat.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida tabaqalashtirilgan yondashuv o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularni samarali o'qitish tizimini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ona tili ta'limida lingvodidaktik asoslar va tabaqalashtirilgan ta'lim tamoyillarining uyg'unligi o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu esa ularning nutqiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Lingvodidaktikaga, garchi ko'p hollarda chet tillarini o'rganish usullari hamda vositalari sifatida urg'u berilgan bo'lsa-da, aslida bu fan ona tili va o'zga tillarni o'qitishning mazmuni, vositalari hamda usullarini tahlil qiluvchi fan sohasidir. Lingvodidaktika - "ta'lim, o'quv jarayoni mazmuni komponentlarini asoslovchi, til tabiati va tilning sotsial fenomeni sifatidagi individning o'zaro faoliyati mexanizmi"[1]ni o'rganuvchi, til o'qitish metodikasini pedagogika, didaktika, pedagogik psixologiya, lingvistika va yosh pedagogikasi bilan bog'liq ravishda talqin qiluvchi amaliy sohadir.

Tilshunoslik va pedagogika fanlari tutashgan nuqtada lingvodidaktika fani vujudga keldi. Qisqacha aytganda, Lingvodidaktika-tilni o'qitish metodikasi, psixologiyasi va didaktikasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadigan fan bo'lib, u o'quvchilarning til kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Bilim, ko'nikma va malaka lingvodidaktikaning asosiy kategoriyalaridir. Ko'nikma ongli holda bajariladigan faoliyatning avtomatlashgan tarkibiy qismi bo'lsa, ong ishtirokisiz avtomatlashgan faoliyat malaka hisoblanadi. Lingvodidaktika fani ilmiylik, tushunarlilik, onglilik, ko'rsatmalilik kabi umumiy prinsiplarga ega. Demak, bu fanning onglilik prinsipiga asoslanishi ma'no va mazmunni



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "

anglab, tushunib o'rganish, amaliy vazifalar-tinglash, o'qish va yozish kabilarni bajarishda ongli o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarga suyanish, ijodiy tashabbuskorlik, mustaqil faoliyatni maqsadli rejalashtirishga imkon beradi.

Tabaqalashtirilgan ta'limda lingvodidaktik asoslar- deganda o'qitish jarayonining didaktik va lingvistik tamoyillariga asoslangan holda o'quvchilarning individual xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos o'qitish tizimini shakllantirish tushuniladi^[4]. Lingvodidaktik asoslar til o'qitish jarayonining fundamental tamoyillariga asoslanadi, jumladan:

1) Kompetensiyaviy yondashuv-o'quvchilarning nutqiy, grammatik, leksik, fonetik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish.

2) Differensial yondashuv-har bir o'quvchining bilim darajasiga qarab mos o'qitish strategiyasini qo'llash.

3) O'zlashtirish tezligiga mos metodlar-tez o'zlashtiruvchi va sekin o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun turli murakkablik darajasidagi topshiriqlar berish.

Lingvodidaktik asoslar o'quvchilarning til o'rganish jarayonini tabaqalashtirish uchun maxsus usullarni qo'llashni talab qiladi. Ular quyidagilardan iborat:

1)Mazmuniy tabaqalashtirish-o'quv materialining murakkabligi o'quvchilar tayyorgarlik darajasiga qarab tanlanadi.

2)Metodik tabaqalashtirish-o'quvchilarning o'zlashtirish sur'atiga qarab turli metodlar va texnikalardan foydalanish.

3)Natijalarga qarab tabaqalashtirish-baholash va monitoring jarayonlari o'quvchilarning individual yutuqlari asosida tashkil etiladi.

Ona tili ta'limida lingvodidaktik asoslarni tabaqalashtirish quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

1.Til kompetensiyalarini rivojlantirish

-Grammatik bilimlarni o'zlashtirish

-Leksik boylikni kengaytirish

-Fonetika va talaffuzni takomillashtirish

-Yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish

2. Differensial ta'lim metodlarini qo'llash

-O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab topshiriqlar berish

-Til o'rganish jarayonida individual yondashuvni yo'lga qo'yish

3. Ko'p darajali topshiriqlar tizimi

-Oddiydan murakkabga qarab tuzilgan mashqlar

-O'quvchilarning nutqiy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda moslashtirilgan topshiriqlar

4. Integrativ yondashuv

-Ona tili darslarida lingvistika, adabiyot va madaniy tafakkurni uyg'un rivojlantirish

-O'quvchilarning turli fanlar bo'yicha kompetensiyalarini shakllantirish

Tabaqalashtirilgan ta'limda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

1. Modulli ta'lim

O'quv materialini kichik bo'limlarga ajratib, har bir o'quvchining individual o'zlashtirish sur'atiga moslashtirish.

2. Ijtimoiy-aloqa usuli

O'quvchilarni jonli muloqotga jalb qilish orqali ularning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish.

3. Tadqiqot asosida o'qitish

Mustaqil izlanish va tahlil qilish orqali til hodisalarini o'rganish.

4. Muammoli ta'lim

O'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish maqsadida tahlil va mantiqiy fikrlashga asoslangan savollar berish.

5. Differensial topshiriqlar orqali o'qitish

O'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishiga qarab moslashtirilgan topshiriqlar tayyorlash.

Tabaqalashtirilgan lingvodidaktik ta'lim tajribasida quyidagilar samarali natija beradi:

-O'quvchilarni turli guruhlarga ajratib, ularning individual til o'zlashtirish darajasiga mos topshiriqlar berish.

-O'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish (rolli o'yinlar, bahs-munozara, klaster usuli va h.k.).

Tabaqalashtirilgan ta'limda lingvodidaktik asoslarni qo'llash quyidagi natijalarga olib keladi:

- O'quvchilarning nutqiy va yozma ko'nikmalari individual rivojlanadi.
- Har bir o'quvchiga mos keladigan ta'lim texnologiyalari qo'llaniladi.
- Mustaqil o'rganish va tafakkur qilish ko'nikmalari shakllanadi.
- O'quvchilar tilni tushunish va qo'llash borasida o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Tabaqalashtirilgan ta'limda lingvodidaktik asoslar o'quvchilarning individual ehtiyojlari va tilni o'zlashtirish xususiyatlariga qarab moslashtirilgan o'qitish yondashuvi bo'lib, ushbu yondashuv umumta'lim maktablarida til o'rganish jarayonini samarali, qiziqarli va o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan holda olib borishga yordam beradi hamda o'qitish samaradorligini oshirib, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muloqot qobiliyatlarini shakllantirishga imkon yaratadi.

Qolaversa, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda til o'qitish metodlarini moslashtirish ularning til kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun ham, umumta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishda tabaqalashtirilgan yondashuvni kengroq tadbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.G‘.Hamroyev. Ona tili o‘qitishning samarali usullari. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Bayoz, 2018.y
- 2.Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.y
- 3.А.Гарцов.Электронная лингводидактика в системе инновационного языкового образования: М., 2009.y
- 4.Ворожцова И. Б. Основы лингводидактики. Удмурцкий гос. унив. 2007.y
- 5.www.pedagog.uz
- 6.ziyo.net